

SAYFI SAROYI G'AZALLARI BADIYATI

Rajabova Ma'rifat,

BuxDU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Sayfi Saroyi XIV asr o'zbek mumtoz adabiyotini rivojida muhim o'rinni egallagan ijodkorlardan biridir. U 1321 yilda Xorazm viloyati Sariqamish qishlog'iда hunarmand-quroloz oilasida dunyoga keladi. Mo'g'ullar istilosi tufayli vatanini tark etgan shoir Oltin O'rda (Saroy shahri), Misr va Turkiyada yashagan.

Sayfi Saroziy adabiyotimiz tarixida fors, arab tili, adabiyoti, tarixi va xalq og'zaki poetik ijodini mukammal o'rgangan ijodkor, lirik shoir va tarjimon sifatida tanilgan. Adabiyotshunoslarning ta'kidicha, bizgacha shoirning adabiy merosidan oz qismi yetib kelgan. Uning 10 dan ortiq g'azali, qasida, qit'a, ruboiy, «Suhayl va Guldursun» dostoni, hamda Sa'diy Sheraziyning “Gulistoni” asarining erkin-ijodiy tarjimasи sifatida yaratilgan «Gulistoni bit-turkiy» asari yetib kelgan.

Sayfi Saroziyining lirik merosi hajm jihatidan katta emas. Shu bois, ularga devon shaklida tartib berilmagan. Ta'kidlash kerakki, Sayfi Saroziyidan bizgacha yetib kelgan lirik she'rlari miqdor jihatidan oz bo'lsa-da, ular mavzu jihatidan rang-barangligi, go'zal tashbehlari, obrazli ifodalari bilan ajralib turadi. Uning «Ko'ngul», «Topulmas», «Ko'zlarining», «Taolalloh zehi surat», «Ul yuzi oy», «Yangi oy», «Qamar yuzingdin», «Erur», «Tutar», «Meningtek nechalar hayron», «Ko'rinur» kabi g'azallari mumtoz g'azalchilikning go'zal namunasi hisoblanadi. Nomlari qayd qilingan lirik she'rlarning o'ziyoq Sayfi Saroyi badiiy mahorati, ularning mavzular olami haqida ma'lumot berish uchun yetarlidir.

Sayfi Saroyi g'azallarida shakl va mazmun uyg'unligi, tanlagan badiiy tasviriy vositalarning estetik zavq uyg'otishi, quyma iboralar, mubolag'ali tasvirlar uning yuksak iste'dodidan darak beradi. U she'r va shoirlar uchun yuksak iste'dod kerakligini yaxshi anglagan. Shuning uchun bo'lsa kerak qalam ahllarini “bulbul” va “zog” larga ajratadi, ijodkorlar oldiga qo'yiladan talablarni boshqalarga ham eslatib turadi. U «Shoirlar ta'rifida» degan masnaviyida ijodkorlarga quyidagicha ta'rif beradi:

Jahon shoirlari, ey gulshani bog',
Kimi bulbuldurur so'zda, kimi zog'.
Kimi to'ti tegin chaynar shakarni,
Kimi lafzi bilan o'rtar durarni.
Kimining so'zları mavzunu shirin,
Kimining loyiqi ta'rifi tahsin.
Kimi o'zganing ash'orin menim der,
Kimi hayvon kabi shalg'am cho'pin yer.
Kimi ma'ni tuzub vaznin tuzotur,
Kimi vaznin buzub, san'at kuzotur¹.

Sayfi Saroyi g'azaliyotining yetakchi mavzusi ishq-muhabbatdir. G'azallarida oshiq lirik qahramon sifatida namoyon bo'lar ekan, uning ruhiy iztiroblari, qalb tug'yonlari orqali ishq va muhabbat muammolari badiiy talqin etiladi. Bu muammo zaminida shoir o'zining ijtimoiy, siyosiy, falsafiy adabiy-estetik qarashlarini singdirib yuboradi.

Shoir lirikasining asosiy qahramoni oshiq, ma'shuq va raqibdir. Bu hihatdan uning “Ul yuzi oykim, jahonning jonidur” misrasi bilan boshlanuvchi g'azali ahamiyatlidir. G'azal dunyoiy muhabbat haqida bo'lib, unda ma'shuqning go'zal tasviri keltirilgan. Shoир mahbubani ta'riflar uni “jahonning joni”, “xo'blarining xoni” sifatida madh etadi. Bu bilan kifoyalanmagan shoir uning zulfini jannat bog'ining rayhoniga, ko'zlarini olamni asir qiluvchi fitnagarga qiyoslaydi:

Ul yuzi oykim, jahonning jonidur,
Bu zamona xo'blarining xonidur.²

¹ Сайфи Сароийи. Шеърлар. Гулистан. Т.: Ф. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти. 1968. 33-бет.

Yosamin tan, qomati sarvi ravon,
Zulfi jannat bog‘ining rayhonidur.
G‘amzasining oltina olam asir,
Ko‘zlar davri qamar fattonidur.

Mumtoz she’riyatda ma’shuqa ta’rifida uning ko‘zi, kiprik hamda qoshilariga alohida e’tibor qaratiladi. Agar yuqoridagi baytda uning ko‘zi fitna qiluvchi sifatida tasvirlagan bo‘lsa, keyingi baytda kiprige oshiq jonini nishonga oluvchi o‘qga, kamon qoshi esa jahonni qurban qiluvchi sifatida tasvirlanadi:

Kirpugining o‘qina jonlar nishon,
Qoshi yoyning jahon qurbanidur.
Shams aning har kun yaqosinda tugar,
Ul sababdin bu jahon nuroniydur.
Ko‘rgali Sayfi Saroyi qul ani
Haq taolo sun‘ining hayronidur

Sayfi Saroyi ma’shuqaning go‘zal tasvirini berar ekan, o‘z pandlarini ham g‘azal baytlarida singdirib boradi. Ya’ni, ma’shuqa qanchalik latofatl va fuzunkor bo‘lmasin, bularning barchasi o‘tkinchi, deydi shoir.

Alo, ey dilbari manzur, bu ko‘rkingga bo‘lub mag‘rur,
Ko‘ngullar qilmag‘il ranjur, kechar bu husn davroni.

Bu ta’kid orqali esa lirk qahramon ma’shuqaning vafo va sadoqatidan umidvor bo‘ladi. Ma’shuqa orqali insonlarga hayot g‘animat ekanligini, “xaloyiqning sevar joni” bo‘lishga da’vad etadi.

Bu muddatni g‘animat bil, bu fursatda vafolar qil,
Bu izzat birla bo‘l ko‘b yil, xaloyiqning sevar joni.

Sayfi Saroyi lirk merosida badiiy san’atlar ham bevosita ma’shuqaning husni latofatini vasf qilish uchun xizmat qildirilganligi kuzatiladi. Ma’lumki, Yusuf alayhissalom mumtoz adabiyotimizda go‘zallik timsoli. Haq ma’shuqaga nafaqat Yusuf husnini ehson (baxshish) qildi, balki uning davlati va shon-shuhrat (mafxar)ni bergen. Birgina baytda talmeh va tadrij san’ati shoir muddaosi uchun xizmat qilgan:

Bu kun Yusuf jamolini qilibtur Haq senga baxshish,
Na baxshish, baxshishi davlat, na davlat, davlati mafzar.

Sayfi Saroyi g‘azallarida so‘z o‘yinidan ham mahorat bilan foydalanilgan:

Dilbarimning zulfi sunbul, chehrasi gulzor erur,
Bo‘yina oshiq sanubar, yuzina gul zor erur.

Baytda gulzor/ gul zor so‘zlar orqali so‘z o‘yini qilingan. Ma’shuqa zulfi sunbulga, yuzi gulzorga qiyoslanar ekan, ikkinchi misrada uning yuziga gul zor ekanligi ta’kidlash orqali ma’shuqa ta’rifining go‘zal namunasi hosil qilingan.

Shoir g‘azallarida ijtimoiy muhitdan norizolik, zamona “xo‘b”lari javridan shikoyat ohanglari ufurib turgan baytlar ham ko‘zga tashlanadi. Hatto, shoir “xo‘blar jafo”sini oshiqning ishq yo‘lida “fano” bo‘lishiga bois ekanligini ta’qidlaydi:

Tortib zamona xo‘blarining javrini mudom,
Ko‘rdungmi hech birinda bulardin vafo ko‘ngul.
Sayfi Saroyini bu qaro qinda bog‘lasang,
Xo‘blar jafosi birla bo‘lursan fano, ko‘ngul.

Sayfi Saroyi g‘azallarida ma’shuqadan ozorlanish, javr ko‘rish natijasida undan shikoyat ohanglari ham o‘ziga xos tasvirlarda namoyon bo‘ladi. Fikrimizni shoirning quyidagi g‘azali tasdiqlaydi:

Bu falak nechun meni doim **qaro qinda** tutar,
Bu otim Sayf o‘ldug‘uchunmi **qaro qinda** tutar?
Qanda bir erdam eri bo‘lsa oni ko‘zdan solib,
Tekma bir erdamsiz erni ko‘z qaroqinda tutar.
So‘zlarimning javharin orif ko‘rub, qadrin bilib,
Ko‘p baholi dur bekin doim quloqinda tutar.

^{2 2} Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистан. Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти. 1968. 12-бет.

Ol bilan **oldi** ko‘ngul mendin bir oy yuzli malih,
 Kim muanbar xoli asvad **ol** yangoqinda tatar.
 Husn ichinda yo‘q naziri, lekin ul joni jahon
 Doimo oshiqlarini ishtiyoyqinda tatar.
 Odati budur hamisha bevafo ma’shuqaning,
 Kim aning vaslin tilasa, ul firoqinda tatar.
 Bu falak javri bekin Sayfi Saroyi bag‘rini
 Ul yuzi oy hajr o‘tining ihtiroyqinda tatar.³

7 baytli mazkur g‘azal ramal musamman mahzuf vaznida yozilgan. G‘azalning xalqonaligini ta’minlagan omil unda sof turkiy so‘zlarning hamda tajnis san’atidan foydalanganligidadir.

G‘azalning birinchi baytida lirik qahramon o‘ziga o‘zi “Nega falak meni doim qiyinchilikda tutadi” degan savol bilan murojaat qiladi. Ikkinci misrada javobni o‘zi beradi: “Balki ismim Sayf (qilich) bo‘lganligi uchun **qaro qinda** tatar”. Shoir baytda so‘z o‘yinidan (tajnis) mahorat bilan foydalangan. Birinchi misradagi “**qaro qin**” “qiyinchilik”, ikkinchi misradagi “pichoq qini” ma’nosida qo‘llangan.

G‘azalning ikkinchi baytidagi **erdam** -odob, yetuklik; **erdamsiz** – odobsiz ma’nolaridagi so‘z. Baytda tavzi’ (tovushlar ohangdoshligi) va tazod san’atidan foydalangan. Ma’shuqa shunday vafosizki, odobli (sadoqatli) oshiqlarni ko‘zdan yiroq tutib, vafosizlarni esa “ko‘z qarog‘i”da aziz tutadi.

G‘azalning uchinchi baytida shoir orif obraziga murojaat qiladi. Haqiqiy ishq sohibining yashash tarzi, har bir so‘zi orif uchun ibrat. Shuning uchun orif oshiqning har bir so‘zini qimmatbaho dur kabi qulog‘ida tutadi. Orif - aqlu-donishda yetuk, ma’rifat nuri bilan qalbi poklangan, pok niyat, pokiza axloqli inson.

To‘rtinchi baytda ham tajnis san’ati orqali go‘zal tasvir yaratilgan. Baytda uch o‘rinda “**ol**” so‘zi qo‘llangan. **Ol** – hiyla, firib; **oldi** - fe’l; ol- qizil. Tajnis so‘zlar orqali ma’shuqaning oy yuzli, qizil yanoqli va hiylagarligiga urg‘u berilgan.

Shoir g‘azalning keyingi baytlarida ma’shuqni “jahonning joni”, husnda tengsiz (naziri yo‘q) deb ta’riflaydi. U oshiqlarni firog‘ida tutib, jabr qiluvchidir. Shoir bu ta’kidlar orqali ishqning izardobli va azobli yo‘lini, haqiqiy oshiqning esa bu yo‘ldagi sabr-bardoshi va matonatini badiiy ifodalaydi. Ishq-muhabbat masalasi shoir lirkasida eng go‘zal tuyg‘ular, ruhiy kechinmalar, ohorli tasvirlar orqali aks etgan.

Sayfi Saroyi g‘azallari o‘zining ohangdorligi, sodda va o‘ynoqiligi bilan ham ajralib turadi. Buning asosi omili shoir g‘azallarining turkiy she’riyatda ko‘p qo‘llanuvchi bahlarda yozilganligidir. Uning g‘azallari hazaj, ramal bahrlarda yozilgan bo‘lib, bu bahrlar turkiy til xususiyatlarini o‘zida ifodalashi bilan ajralib turadi.

Xulosa qilib aytganda, Sayfi Saroyi lirik g‘azallari bilan mumtoz g‘azalchiligmiz xazinasini boyitdi. O‘z g‘azallarida mavjud an’analarni davom ettirish bilan birga, betakror yaratmalari bilan mazkur janrning taraqqiyotiga o‘ziga xos o‘rin tutdi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистан. Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти. 1968
- Safarova Hilola, Rajabova Marifat, Amonova Zilola. Formation of musammat (octaves) in the literary environment of Bukhara (based on the poems of Samandar Vahidov). Cyberpsychology, Behavior, and social networking Volume 24, Number 12, 2021^a Mary Ann Liebert, Inc.DOI: 10.1103/cyber.2021.29221.editorial
- Safarova Hilola Oxunjonovna, “The crow, the owl, the raven, the slice, which turned your flowers. (one of the example create of Samandar Vohidov)”, IEJRD - International Multidisciplinary Journal, vol. 6, no. TITFL, pp. 211–216, Apr. 2021.
- Rajabova M. Navoiy va ogahiy ijodida mifologik obrazlar tasviridagi mushtarakliklar //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 6. – №. 6.

³ Сайфи Саройи. Шеърлар. Гулистан. Т.: F. Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашрёти. 1968. 16-бет.

5. Bakoyevna R. M. Expression of images related to national traditions in a. navoi's work //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – С. 141.
6. Rajabova M. Навоий ижодида мотам маросимиға оид урф-одатларнинг бадиий талқини //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
7. Rajabova M. Алишер навоий ижодиётида телбаликнинг мотивлаштирилиши //Центир научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 4. – №. 4.
8. Раджабова М. Б. Некоторые размышления о загадках в работах Алишера Наваи //Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир. – 2021. – С. 157-159.
9. Rajabova M. Алишер Навоийнинг Абдураҳмон Жомийга бағишлиланган марсиялари //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Qodirova N. S. Problems Of Style And Creative Individuality In Literature //International. Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 2. – С. 254-260.
11. Qodirova N. S. The analysis of Ibrahim Hakkulov in new uzbek literature //International Engineering Journal For Research & Development. – 2021. –Т. 6. – №. TITFL. – С. 152-157.
12. Qodirova N. S. Some characteristic features, skills and style of the literary critic //Web of Scholar. – 2018. – Т. 5. – №. 2. – С. 32-35.
13. Radzabova Ma'rifat Bakaevna Amonova Zilola Kadirovna, Safarova Khilola Oxunjonovna. The influence of the ideas of the hurufism sect on Nasimi's work. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Pag. 5541-5549. <https://cibg.org.au/>
14. Amonova Zilola Kadirovna. Attitudes Towards Nasimi in Modern Literature. International Journal on Integrated Education. 2021. №8. Pag. 41-46. journals.researchparks.org
15. Зилола Кодировна Амонаева. Вопросы влияния хуруфитского ордена на узбекскую классическую литературу XV-XVII веков. Вестник Челябинского государственного университета. 2011. №11.
16. Zilola Kadirovna Amonova. Nasimi and lutfi. Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир. 2021. 67-68
17. . Pulatov Furkat Amanovich. (2022). THE IMPORTANCE OF TOURISM. Conference Zone, 117–118. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/147>
18. Amanova Nodirabegim Furkatovna. (2022). EFFECTIVE METHOD OF TEACHING. Conference Zone, 53–55. Retrieved from <http://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/124>
19. Amanova N.F Amanova F.F . INNOVATIVE ACTIVITY IN THE FIELD OF TOURISM. Euro-Asia Conferences, 1(1), 308–309. Retrieved From <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/97>
20. Ashurova F L Communicative And Pagmatic Features Of Colloquial Vocabulary In Newspaper Style <https://media.neliti.com/media/publications/344206-communicative-and-pagmatic-features-of-c-18e94270.pdf>
21. Ashurova F L Features Of The Translation Of Aphorisms From Foreign Languages Scientific Progress Volume 2 | Issue 8 | 2021 Issn: 2181-1601 <http://scientificprogress.uz/storage/app/media/2-8.%20077.%20434-437.pdf>